

TONG yulduzi

N: 43
(66480)

2004 yil
25 oktabr - 31 oktabr

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqa
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

FIRDAVSI JINON MAKTAB, NODONLARA JON MAKTAB...

XX ASRGA UCHQAN XAYOL

Ana shunday go'zal satrlar ila davom etgan ushbu she'r XX asr boshida yashab ijod etgan, «Birinci muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni» singari darsliklar muallifi Abdulla Avloniy qalamiga mansubligi ko'pchiligizga ma'lum. Milliy uyg'onish davri adabiyoti fanidan ma'ruza o'qigan domlamiz (marhum) Begali Qosimovning Avloniy haqidagi ushbu gaplari hanuz yodimda:

-1904 yilda Mirobodda usuli jadid maktabini ochgan, 1909 yilda esa «Jamiyati xayriya» ochib, mahalliy xalq bolalarining o'qib bilim olishi uchun pul yig'ib, maktablarga tarqatgan. Bu haqda hatto o'sha davrda Orenburgdagi «Vaqt» gazetasida ma'lumotlar berilgan...

XXI ASRDA NIMA QAPLAR?

XX asr boshiga uchgan xayolni jilovlab, asta XXI asrga qaytaramiz. Aslida, bunday xayollarga sabab, Shayxontohur tumanidagi 20-maktabda o'quvchilarga sidqidildan saboq berayotgan muallimlar va ularning shogirdlari turtki bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmas. Nima uchun, deysizmi?

Ochig'i, hozirgi kunda fidoyi ustozlar kamayib borayotgani, yosh-avlodning esa o'qituvchilik kasbga biroz havasi pasayganligi sir emas. Tadbir bahonasida 20-maktabga tashrif buyurib, maktabning saranjom-sarishtaligi, shogirdlar ko'zidagi ustozlariga bo'lgan mehruhahabbat, ustozlarning mas'uliyatli va o'z kasbining mohir ustasi ekanligining guvohi bo'ldik. O'quvchilarining savodxonligini oshirish yo'lida maktab qurmayotgan bo'lsalar-da, kelajak avlodning ilmi, bilimli bo'lishlarida qo'llaridan kelgan barcha imkoniyatlarni ishga solmoqdalar.

20-MAKTABDA-CHI?..

Tadbirni ko'tarinki ruhda o'tkazib, «yelkasidan tog' ag'darilgan» maktab direktorining suhbatlarini olish maqsadida shaxsiy xonalari tomon yo'l oldik. Eshikka katta harflar bilan

Zukko gazetxon sarlavhani o'qib, ushbu she'rning muallifi kim ekanligini topgan bo'lsa, ajab emas. Gap yana maktab haqidami, yaxshisi hikoyami, latifani birinchi o'qiy qolay, deya boshqa sahifani varaqlashga shoshilmang, aziz o'quvchi! Yaxshisi, she'rning davomini o'qib ko'ring-chi, sizga manzur bo'larmikan?..

*Firdavsi jinon maktab, nodonlara jon maktab,
Bilgan kishiga qadrin bir dorulomon maktab.
Ko'ngul oshig'i maktab, ruhing pishig'i maktab,
Ilmu adab o'rgatgay, donanda ko(r)don maktab.*

Qosimova Shahnoza Shoyusupovna deb yozib qo'yilgan ekan. Shahnoza opa bizni kulib qarshi oldilar:

-Yaxshi hamki tadbir bor ekan, bo'lmasa bizning maktabimizga «chorlab» chaqirsak ham kelmaysizlar. Bugun o'quvchilarimizning quvonchlarini ko'rib, to'g'risi, boshim ko'kka yetdi. Maktabimizda iqtidorli o'quvchilar juda ko'p. O'qituvchilarimiz ham har tomonlama yetuk, namunali murabbiylar. 25 yildan buyon maktab sohasida ishlayotgan bo'lsam, ana shu davr mobaynida maktab ham bir oila ekanligiga amin bo'ldim. Oila a'zolari ahil bo'lsalar, bu oilaga hamma havas bilan boqadi. Shuning uchun ham o'quvchilarimiz orasida doimo ahillikni saqlab turishga harakat qilamiz. Bu borada ularga ustozlari o'rnak bo'ladilar.

«Tong yulduzi»GA 100 TA OBUNA...

-O'quvchilaringizning savodxonligini oshirish borasida qanday ishlarni amalga oshirmoqdasiz?

-Avvalo, e'tiborimizni pedagog kadrlarning malakasini oshirishga qaratishimiz lozim. O'qituvchilar o'z kasbini sevsal, ularda bilim m a l a k a s i



qanchalik yuqori bo'lsa, o'zidagi ilmini o'quvchilarga yetkazish qobiliyati kuchli bo'lsa o'quvchilar savodxon va bilimdon bo'lib yetishishadi. Qolaversa, kitobxonlik, gazetxonlik ham o'quvchilar tafakkurini boyitadi. Shuning uchun kutubxonalarimizni yangi badiiy adabiyotlar bilan ta'minlab,

o'quvchilarni «Sog'lom avlod», «Tong yulduzi» gazetalariga, «Gulxan», «G'uncha» jurnallariga obuna qildik. Shaxsan «Tong yulduzi» gazetasiga obunachilarimiz soni 100taga yetib qoldi.



O'qituvchilar NIMA deyishyapti?

Mastura YO'LDOSHEVA, tarix va huquq fanlari o'qituvchisi:

-38 yildan buyon muallimalik qilib kelmoqdaman. Maktabga erta kelib, kech ketaman. Maktab ikkinchi uyimdek bo'lib qolgan. Shuncha yil ishlab, hali biron marta bu kasbdan noliganim yo'q. Chunki o'quvchilarimni va o'z kasbimni hurmat qilaman, ularni hech narsaga alishgim kelmaydi.

Nodira YO'LDOSHEVA, o'quvchilarga musiqadan saboq berib kelmoqda. Ularning so'zlariga quloq solaylik-chi:

-1-7-sinf o'quvchilariga musiqadan dars o'taman. «Shodiyona» guruhiga rahbarlik qilaman. Maktabsiz, o'quvchilarimsiz hayotni tasavvur qila olmayman. Maktabimizda musiqani sevuvchi, qobiliyatli o'quvchilar ko'p. Eng muhimi, ularning qobiliyatini payqab olishda. Ayrim o'quvchilarning ovozi bor-u, eshitish qobiliyati pastroq. Ayrimlarning esa eshitish qobiliyatlari kuchli bo'lsa-da, ovozlari yaxshimas. Ana shunday o'quvchilar ustida individual tarzda ishlayman, shuning uchun bo'lsa kerak yaxshi natijalarga erishib kelmoqdami.

Maktabim - seni maqtagum

O'QUVCHILAR-CHI? ...

Anvar SHORAHMEDOV,
5-«B» sinf o'quvchisi:

-Katta bo'lsam diplomat bo'lmoqchiman. Buning uchun ingliz tilini mukammal o'rganyapman. Ingliz tili ustozimiz Nigora opa Qosimova juda yosh va chiroylilar. Ular yaqindagina institutni tamomlab, bizga dars bermoqdalar. Nigora opamning muloyimliklari sababmi yoki ingliz tilini juda yaxshi bilishlari uchunmi, men ham ingliz tilini tez o'rganayapman. Shohruh aka Hakimov ham bizga qiziqarli dars o'tadilar. Ularga havasim keladi.

Mavluda SOBIROVA,
7-«V» sinf o'quvchisi:

-She'r yozishni yaxshi ko'raman. Sinfimiz o'quvchilari bilan «Tong yulduzi»ga obuna bo'lganmiz. Yozgan hikoya, latifa va she'rlarimizni sevimli gazetamizga yuboramiz. Bizning maqolalarimiz ushbu gazeta sahifalarida bosilib turadi. Sinfimizda a'lochi o'quvchilar ko'p. Bizlarning yaxshi bilim olishimizda avvalo ustozlarimizning xizmatlari katta. Ustozlarimizni juda qattiq hurmat qilishimizga sabab ham shunda.

XULOSA BIR QOLIPGA SOLINMAS

Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi, aqidasi amal qilinsa, menimcha yomon bo'lmas ekan. Chunki 20-maktab o'qituvchilari va o'quvchilari hayoti bilan yaqindan tanishib, ular haqida ozmi-ko'pmi ma'lumotga ega bo'lib qaytdik. XX asr muallimlari va XXI asr ustozlarini bir qolipga solib solishtirib bo'lmasa-da, har holda ular haqidagi fikrlarimiz ancha oydinlashdi. Bu albatta **bizning XULOSA**. Siz aziz o'quvchilarning maktublaringizni esa kutib qolamiz.

Ha, aytganday, maktublaringizda o'z maktabingiz, ustozlaringiz va albatta obuna borasida maktablaringizda qilinayotgan ishlar haqida ham yozib yuboring.

Gulyuz BAHODIR qizi.

Toshkent viloyatining Quyichirchiq tumanida unchalik katta bo'lmagan bir maktab bor. O'zi kichik bo'lsa-da, u yerda amalga oshirilayotgan ibratli ishlar ko'lamini katta. 193 nafar o'g'il-qizga M. Xudoyberdiyeva,




Rahbarning o'ta talabchan bo'lgani maktabning yutug'i ekan. O'qituvchilar jamoasidan ham xuddi o'zidek fidoyilikni talab qilarkan.

O'qituvchilar o'z fanlaridan dars beribgina qolmay, maktab qoshida

Ibrat

ekan. 9 - sinf o'quvchisi Elmurod Xudoyberdiyev «O'zbekiston-Vatanim manim» ko'rik-tanlovida respublika bosqichiga chiqqan bo'lsa, 8-sinf o'quvchisi Maramnisa Qurbonova tumanda o'tkazilgan raqqosalar tanlovida 1-o'rinni egalladi. A'lo o'qishi, namunali xulqi, jamoat ishlaridagi faolliklari bilan



Murodova,

Sunduz Donoboyeva singari mohir terimchi o'g'il-qizlarning tergan paxtalari kuniga 100 kilogrammdan ham oshib ketyapti...

Kichkinagina maktabning o'ziga yarasha kattagina muammosi ham yo'q emas. Deyarli hamma o'quvchilari sportsevar bo'lgan mazkur bilim dargohida sport zali yo'q. Bahor va kuzda maktab hovlisini obdon «changitishadi-yu», ammo qish kunlarida bu maktabda sportdan umuman so'z ochmaganingiz ma'qul. Qaniydi, mutasaddi rahbarlar o'zlari bosh-qosh bo'lib, kichkinagina bo'lsa ham sport zali qurib berishsa-yu, o'quvchilarning ko'p yillik orzulari ushalsa...

Feruza JALILOVA.

Suratlarda: 1. Chachi Zera Mustafayevna o'tadigan rus tili fani bolalarning eng sevimli daralaridan biri sanaladi.

2. Maktabning ilmiy bo'lim mudiri Muruvvat Mo'minova har bir ishni o'qituvchilar jamoasi bilan bamaslahat qilishga odatlangan.

3. Hormang, «100 kilogrammchilar harakati» tashabbuskorlari.

SPORTDAN SO'Z OCHMANG...

N. Shayzoqova, M. Mo'minova, muntazam faoliyat ko'rsatayotgan ona tili, rus tili, informatika, xor,

T. Sarbayev, S. Rubina, L. Risqulova kabi o'z kasbini jondan sevgan 13 nafar ustoz-murabbiylar ta'lim-tarbiya berib kelayotgan bu bilim dargohiga xalq maorifi a'lochisi,



oliy toifali fidoyi o'qituvchi Ibraim shaxmat-Dudakov rahbarlik qilib qiladi. Ish faoliyatini 1975 yilda mana shu maktabda boshlab, 25 yil davomida ilmiy bo'lim mudiri lavozimida mehnat qilgan, ayni damda unga rahbarlik qilib kelayotgan bu fidoyi ustoz pedagogik faoliyati davomida ko'plab o'quvchilarni matematika fanidan viloyat olimpiadalariga olib chiqdi.

barchaga namuna bo'layotgan Dildora Abduvoitova, Dildora Boybo'tayeva, Nasiba Alibekova, Farog'at Subanova, Bobur Boybo'tayev kabi o'quvchilar maktabning faxri sanaladi.

Mazkur maktab o'quvchilari nafaqat bilim borasida, mehnatsevarlikda ham hammaga namuna bo'lishyapti. Paxta yig'im-terimi qizg'in davom etayotgan ayni pallada ularni paxta dalalaridan topasiz. Tumanda o'tkazilayotgan «100 kilogrammchilar harakati»ni ham shu maktabning To'liqin aka Sarbayev rahbarlik qilayotgan 9-sinf o'quvchilari boshlab berishdi. Ulug'bek To'rayev, Shohida Oqqulova, Zamina Mamadaliyeva, Zuhra



«2004 yil -Mehr va muruvvat yili»

O'KSİK QALBLARGA MALHAM

Xalqimizda yaxshi bir udum bor: biron-bir bayramni, shodiyonani tantana qilishdan avval beva-bechoralar, mehrga tashna insonlar holidan xabar olinadi. Kuni kecha Toshkent shahar, Chilonzor tumani hokimligi, DM O'zOY «Uyg'onlik» tashkiloti tashabbusi bilan tumandagi 281-maktabda ajoyib bir tadbir bo'lib o'tdi. Unga tumandagi barcha nogiron yoshlar, qalbi o'ksik insonlar taklif qilindilar. To'kin dasturxon atrofida jamlangan tengdoshlarimiz bayramdan bir olam taassurot olishdi. Maktab qoshida tashkil qilingan raqs dastasi qizlari ijrosidagi raqslarni tomosha qilib, kuy va qo'shiqlarni tinglab, miriqib dam olishdi, qiziqchilarning chiqishlarini ko'rib shodlanishdi. O'z navbatida ular ham yod olgan she'rlaridan o'qib berishdi, qo'shiqlar kuylashdi. Men bayram bahona ulardan ayrimlari bilan tanishib ham oldim. Suhbatimiz davomida ularning bichish-tikishga, sport bilan shug'ullanishga ishtiyoqlari balandligini, uyda bekor o'tirmay, hunarli bo'lishga intilishayotgani, shaxmat-shashka o'ynash eng sevimli mashg'ulotlari ekanligini bilib oldim. Tadbirda maktabimiz direktori, tashkilot a'zolari,

mahalla oqsoqoli, maktab o'qituvchilari so'zga chiqib, yig'ilganlarga sihat-salamatlik, ishlarida omadlar tiladilar. Men ham so'zga chiqib; garchi nogiron bo'lsalar-da, hech kimdan kam emasliklarini ta'kidladim. Yurtimiz uchun kerakli o'g'il-qizlar bo'lib kamol topishlariga tilakdosh bo'ldim. Homiyar tomonidan tarqatilgan sovg'a-salomlar ularning o'ksik qalblarini biroz bo'lsa-da, ko'tardi. Yuzlarida tabassum bilan uylariga oshiqayotgan tengdoshlarimizga boqib, biz ham juda quvondik.



Gulshan ERGASHEVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi
281 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi.

ONA TILIM YASHNAGAY MANGU

Har bir tilning o'ziga yarasha go'zalligi, o'ziga xosligi bor. Bizning o'zbek tilimiz ham juda go'zal va boy til. Har bir inson o'z ona tili bilan faxrlanib yashashi va uni buzmaslikka intilishi kerak. Afsuski, ko'cha-ko'ya tengdoshlarimizning, hatto ayrim kattalarimizning ham gap-so'zlariga quloq tutsak, tilimizni buzib, unga rus tilini aralastirib so'zlashishlarining guvohi bo'lamiz. Bu zamonning ta'sirimi yoki o'zlarining xohishimi, bilmayman. E'tibor bergan bo'lsangiz, ayrim boshqa millat vakillari o'zbek tilini

bilmasliklarini faxr bilan aytishadi. Biz esa ularning tilini bilmasligimizdan uyalamiz. Hozirgi kunda ko'plab tengdoshlarimiz chet tillarini o'rganishga berilib ketishgan. Bu juda yaxshi albatta. Lekin ular avval o'z tillarini mukammal o'rganib olishsa, uning sofligini saqlab qolishsa, juda yaxshi bo'lardi. Zero, Navoiy bobomiz ham:

«O'z tilida sayrab so'zlog'on,

Qalbi huzur bilan bulg'ong'on»,
deb bejiz yozmaganlar.

Ma'fura JAMOLLIDDINOVA,

Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 29 - maktabning 8 - «A» sinf o'quvchisi.

MO'YQALAM JILOLARI

Kuni kecha O'zbekiston Badiiy Akademiyasining markaziy ko'rgazmalar zalida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan rassom, O'zbekiston Davlat mukofoti sovrindori, san'at arbobi, akademik Rahim Ahmedovning ijodiy ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Sehrli mo'yqalam sohibining asarlaridagi manzaralar, portretlar, natyurmortlar, ulardagi o'zaro uyg'unlik, ranglarning betakror jilolaridan hayratga tushasiz. Rassomning chizgan suratlari kishini hayrat va xayolot olami sari yetaklaydi. Ularda zamon, davr, insonlar falsafasini o'qiyasiz. Shuningdek, ko'rgazmada ustozning iqtidorli shogirdlarining asarlari ham namoyish etildi. Ayniqsa, O'rtiqali Qozoqov, Akmal Nur, Rahmon Shodiyev, Jamol Usmonov kabi Rahim akaning izidan borayotgan yosh mo'yqalam sohiblarining asarlari ham yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Ko'rgazmadan qaytar ekanman, qalbin olam-shodlikka to'ldi. Ana shunday ko'rgazmalarining namoyish etilishi biz yoshlarda katta qiziqish uyg'otadi.

Sevara SHERALIYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'at litseyining 11 - sinf o'quvchisi.

BOLALAR SPORTI




USTOZ NEGA RANJIDI?

Aziz bolajonlar, fursat topib, keksa buvijon va bobojonlaringiz bilan dildan suhbat quring. Ular sizni bizdan ko'ra osmonni balandroq, yerni chuqurroq ko'rishlariga amin bo'lasiz. Boisi, keksalar hayot kitobini to'liq o'qib chiqqanlaridadir. Hozir sizga so'zlamochi bo'lgan hikoyamiz qahramoni ham 75 yoshli jismoniy tarbiya o'qituvchisi Salim aka Omargaliyev ham xuddi shunday fazilatlariga ega insonlardan biri.

«Ey, shu yoshda ham maktabda ishlab bo'larkanmi, yana jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lib-a?», deya hayratlanayotgandirsiz? Ishonmasangiz, shu maktabga bir keling. Salim boboni yo'qlasangiz, maktabning sport zalidan topasiz. Kuni kecha biz ham boboni yo'qlab bordik. Faxriy ustozimiz maktabda o'tkazilayotgan «Umidd nihollari»ning 1-4 sinflararo musobaqalarida hay'at a'zosi sifatida ishtirok etayotgan ekanlar. Boboning shogirdlari musobaqaning tuman bosqichiga ancha puxta tayyorgarlik ko'rishibdi. 1961 yildan buyon poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 157-maktabda jismoniy tarbiya fanidan dars berib kelayotgan otaxon, maktabning eng keksa o'qituvchisiman, demasdan, bolajonlar bilan o'tiladigan sport mashg'ulotlarini hecham bo'shashtirmayaptilar. Bu yillar

mobaynida yetishtirgan shogirdlarining sanog'idan ham adashib ketganlar. O'zbek futboli yulduzi Mirjalol Qosimov, taniqli sport sharhlovchisi Rixsitilla Umarov va yana ko'plab sport ustalari «Salim bobo shogirdlarimiz», deya faxrlanib yurishadi.

Darhaqiqat, bu bag'rikeng ustoz mehri xuddi quyosh nurlaridek barchaga barobar yetib boradi. Shogirdlaridagi tirishqoqlikni, yangilikka intilishni ko'rib quvonadilar. O'zlari



voleybolchi bo'lganliklari uchun ham voleybol to'garagiga boshchilik qilib kelyaptilar. Bu maktabning hovlisi darslardan keyin ham hech qachon huvilla b qolmaydi. Sport zali ham, hovlisi ham doimo yosh sportchilar bilan gavjum bo'ladi...

Maqolamizni «Ustoz nega ranjidi?» deb nomlaganimizga hayron bo'layotgandirsiz?

Yaxshisi, buning sababini ustozning o'zlaridan so'ray qolaylik:

-Salim bobojon, agar sir bo'lmasa, ranjiganingiz sababini bizga ham ayting.

- Yurtimizda bolalar sportiga e'tibor va g'amxo'rlikning ortib borayotganini ko'rib, keksayib qolganimdan xafa bo'lib ketaman-da. To'g'ri, shu yoshimda ham o'zimni juda tetik va bardam his qilaman. Ammo yosh bo'lganimda edi, bu imkoniyat va shart-sharoitlardan unumli

foydalanib, yanada ko'proq yutuqlarga erishgan bo'larmidim?! Chunki bizning o'smirlik yillarimizda bunday imkoniyatlar bo'lmagan-da. Xafaligimning yana bir sababi - yaqinda umumta'lim maktablari uchun

chop etilgan jismoniy tarbiya darsligi xususidadir. Salkam 35 yillik mehnat faoliyatimda o'rgangan bilimlarim maqtansam ham, maqtanmasam ham bir kitobdir. Ammo yaqinda chop etilgan 5-6 sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan jismoniy tarbiya o'quv qo'llanmasi faxriy ustoz sifatida 100 foiz ayta olamanki, bizning dars berish usullarimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun ham biz maktabning jismoniy tarbiya o'qituvchilari bu darslikni yaroqsiz deb tan oldik. Men ham markaziy metod birlashma a'zosiman. Ammo bu darsliklar qaysi a'zolar tomonidan ma'qullandi ekan, deb boshim qotayapti. Bugungi kunda maktabimiz o'yingohi faqatgina futbol maydoniga aylanib qolgan. Hozir bu yerda ta'mirlash va jihozlash ishlari ketayapti. Lekin jismoniy tarbiya degani faqat futbol degani emas-ku. Sport maydonida yengil atletika uchun hech qanday sharoit yo'q...

Aziz bolajonlar! Sizning jismoniy tarbiya o'qituvchilaringiz ham Salim bobo kabi fidoyimi, kuydi-pishdi insonmi? Agar shunday bo'lsa, omadingiz bor ekan. Afsuski, hamma jismoniy tarbiya o'qituvchilari ham bobodek bo'lolmaydi-da. Shunday ekan, ularni har qancha qadrlasak, e'zozlasak arziydi.

-Barkamol avlodni tarbiyalashda hormang, bobojon,- deya xayrlashdik ustozimiz bilan.

Hurshida BOYMIRZAYEVA,
Farg'ona viloyati,
Uchkoprik tumani.

BARISI HAM FOYDALI

*Qadimdan o'zbek erkak,
Qilichni mohir tutgan.
Abjir, chaqqon va sergak,
Qo'rqmas, botiri yutgan.*

*Kurashga-ku, «gap yo'qdir»!
Undan ko'ngillar to'qdir.
O'zbekning yutug'idan,
Qoyil ko'p xorij shahri.*

*Sport bilan o'rtoq bo'l,
Kuch-quvvatli, oqil bo'l.
Yana bo'lsang mohir qo'l,
Senga ochiq barcha yo'l.*

*Sportning turi ko'pdir,
Yomon tomoni yo'qdir.
Shug'ullansang qoidali,
Barchasi ham foydali.*

Bahrom TOJIYEV.

SOG'LOM AVLOD BO'LAYLIK

*Bizlar zukko bolamiz,
Sog'lom avlod bo'lamiz.
Barkamol bo'lmoq uchun,
O'qib bilim olamiz.*


*Biz tirishqoq bolamiz,
Kuch-g'ayratga to'lamiz.
Sport bilan do'stlashib,
Sog'lom avlod bo'lamiz.*

*Fidoyi kishilardan,
Doim o'rmaq olamiz.
Ajdodlarga munosib,
Farzand bo'lib qolamiz.*

*Bizlar quvnoq, tirishqoq,
Ziyrak, zukko yosh avlod.
Kamolimizni ko'rib,
Ona xalqim bo'lsin shod.*

Dilobar MIRMOSILOVA,
Toshkent shahar,
Shayxontohur tumanidagi
S.Ayniy nomli
84-maktabning 6-«G» sinf
o'quvchisi.





SINFDOSHIM-SPORTCHI

Yaqinda Prezidentimiz Oqsaroyda raisligida «O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish» jamg'armasi homiylik kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tganligidan barchamiz xabardormiz. Unda mamlakatimiz rahbari yil boshida, ya'ni 9 yanvar kuni o'tkazilgan «Bolalar sportini rivojlantirish» jamg'armasi homiylik kengashining yig'ilishida

Taklif

yilgacha respublikamizdagi barcha maktablarda yetarli shart-sharoitga ega bo'lgan sport maydonchalari barpo etilishi lozimligi haqidagi xushxabar bizni juda quvontirdi...

Chunki bizning ta'lim maskanimizdagi sport zalimiz va sport maydonlarimiz

JISMONIY TARBIYA FAQAT O'YINMI?..

vazifalarning bajarilishiga, sport inshootlari barpo etish dasturi joylarda qanday bajarilayotganligiga jiddiy e'tibor qaratdilar. Shuningdek, 2004- 2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini bajarishda jamg'armaning o'rni va ahamiyati, jismoniy tarbiya o'qituvchi kadrlarini tayyorlash masalalariga ham to'xtalib o'tdilar.

Biz o'quvchilar bugungi kunda maktablarda jismoniy tarbiya darslariga e'tibor ancha kuchayganligidan xursandmiz. Ayniqsa, qarordagi 2010



yetarlicha ta'mirlangani bilan zamon talablariga to'liq javob bermaydi-da. Shu o'rinda men ham o'z fikrimni bildirgim

keldi. Odatda jismoniy tarbiya darsi deganda biz faqat sport o'yinlarini tushunamiz. Ammo yil yakunida esa bu fandan imtihon topshirganimizda savollarga javob bera olmasdan qiynamiz. Istadikki, o'qituvchilarimiz bizga jismoniy tarbiya darsidan nazariy bilimlar ham berib borsalar.

Zilola MALLAYEVA,

Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi 9- o'rta maktabning 7- sinf o'quvchisi.

Faxr

Sinfoshim Shohruh Sarmonov sportning taekvondo turini juda sevadi. Shuning uchun ham yoshligidanoq sportning bu turi bilan muntazam shug'ullanib keladi. Uning ustozlari ko'p. Ammo murabbiyi Nagay Moasey uning hayotida muhim rol o'ynaydi. Nagay bilganlarini Shohruh kabi o'nlab shogirdlariga o'rgatishdan aslo charchamaydi. Murabbiyning aytishicha, shogirdlari orasida Shohruh o'zining sportning bu turiga qiziqishi bilan ajralib turarkan. Ana shu sabab ko'plab sport g'oliblikni qo'lga sport klubida bo'lgan oltin, «Yoshlik» sport bellashuvda kumush, tumanida bo'lgan bronza medal va bir yorliqlar sohibi kelajakdagi orzulari mo'l: avvalo, ota-onasi ishonchini oqlash, a'lo baholarga o'qib, bilimli, komil inson bo'lish. Qolaversa, sport sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritib, O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarish. Sinfoshimimizning orzulari ushali shiga ishonamiz. Chunki Shohruh bir so'zli, maqsad sari intiluvchan bola.



Dilnavoz O'RINBOYEVA,



A. Ikromov tumanidagi 296- maktabning 8-«G» sinf o'quvchisi.

IKKI YILLIK TANAFFUSDAN SO'NG..

Nihoyat, yurtimizning mashhur tennischisi Iroda To'laganova yana kortga qaytdi. Iroda opangizning bir qator jarohatlar olgani uchun musobaqalarga qatnasholmay, tanaffus qilganidan xabaringiz bor-a? Uning ikki yillik tanaffusdan keyingi ilk musobaqasi qaysi ekanligini bilasizmi? Bu musobaqaning nomi Tennis bo'yicha Xalqaro ayollar turniri «Toshkent Open-2004» musobaqasidir.

Ushbu musobaqa ko'p yillardan buyon o'z nufuzi bilan jahon sport ishqibozlarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bu yilgi bahslarda ham dunyoning eng kuchli raketka ustalari, jumladan, AQSH, Rossiya, Italiya, Germaniya, Chexiya, Fransiya, Ispaniya kabi davlatlardan 64 nafar raketka ustalari tashrif buyurishgan. Qizg'in bellashuvlarda fransiyalik M. Bartolle, ispaniyalik M. Marrero va germaniyalik A. Grendfeld kabi tennis yulduzlarining kortdagi bahslari tomoshabinlar uchun qizg'in kechdi. Musobaqaning hayajonli daqiqalarida Iroda To'laganovaning o'zaro bahsi yurtdoshlarimizni hayratlantirdi. Chunki mohir tennischimiz juda kuchli raqib, fransiyalik Marion Bartolle bilan bahslashishga to'g'ri keldi. Bartolle dunyo reytingida 41- o'rinda turishi bilan ajralib turadi. Ammo Iroda opangiz ham bo'sh kelmadi: bu o'yinda katta mahorat ko'rsatib, 6:4; 6:4; hisobida raqibi ustidan g'alaba qozondi va musobaqaning final o'yiniga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Ammo ikkinchi davra o'yinlarida Iroda opangizni omadi chopmadi. Musobaqada italiyalik Antonella Zanettining qo'li baland keldi.



FUTBOL TARIXINI BILASIZMI?

O'g'il bolalar odatda sport turlari orasida futbolga o'zgacha mehr bilan qaraydilar. Unga «millionlar o'yini» deya ta'rif berilishi ham bejiz emas. Bolajonlar salgina bo'sh qoldilarmi, darrov futbol o'ynaydilar.

Har bir sport turining o'z tarixi bo'lgani kabi futbol o'yini o'z tarixiga ega. Qani, uni bir varaqlab ko'raylik-chi:

Dastlab futbol so'zining ma'nosi haqida to'xtalib o'tsak. Bu so'z inglizcha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, «fut» oyoq, «bol» to'p ma'nosini bildiradi.


Zamonaviy futbol qoidalari 1863 yilda Angliyada qabul qilingan. Vatanimizda birinchi futbol jamoasi 1912 yil Qo'qon shahrida tashkil topgan. Hozirda ushbu tarixiy voqea sharafiga Qo'qon futbol jamoasining nomi «Qo'qon- 1912» deb nomlanadi.

Siz ham chindan futbol ishqibozi bo'lsangiz, tahririyatimizga o'zingiz bilgan, eshitgan futbol jamoalarining nomi, tarixi haqida ma'lumotlar yozib yuboring. «Sport saboqnomasi» da bunday ma'lumotlarni o'qish tengdoshlaringizga ham juda qiziqarli bo'ladi.






Antika rekordlar



FUTBOLCHILAR YASHIN UCHUN AJOYIB NISHON




Aytaylik, havo aynib, osmonda kuchli momaqaldiroq gumburladi. Kuchli chaqmoq chaqib, allaqanday yorqin nur bir porlab, yerga o'qdek uchdi. Buning nima ekanligini bilasizmi? Bu - yashindir. Unga nishon bo'lgan narsadan asar ham qolmasligi tayin. Unga kimlar va nimalar nishon bo'lishi mumkin?..

Ko'pincha, ochiq maydonda to'p surayotgan futbolchilar unga nishon bo'lib qolishar ekan. 2002 yili iyul oyida Pavlograd shahrining «Yubiley» shaxtasi stadionida o'tgan futbol o'yini chog'ida yetti nafar futbolchi yashindan zarar ko'rgan. Ulardan ikki nafari shu yerning o'zida jon bergan, qolganlarini og'ir ahvolda shahar shifoxonasiga olib kelishgan ekan.

Bundan bir necha kun avval Tailandda ham xuddi shunday voqea takrorlandi. Talabalar o'rtasida bo'lib o'tayotgan futbol o'yini chog'ida maydonga kelib tushgan yashin yana bir talabaning umriga zomin bo'ldi. 14 nafariga og'ir tan jarohatlari yetkazdi.

2002 yili aprel oyida avstraliyalik futbolchilarni ham yashin urgan ekan. Bu ko'ngilsiz voqea ham futbol maydonida, o'yin chog'ida ro'y bergandi. Ushbu noxush hodisa Melburn shahrida ham bo'lib o'tdi. Bu galgi yashin urishi futbolchilarga boshqacha ta'sir qildi. Ya'ni, u maydondagi futbolchilarning oyoq barmoqlariga jiddiy zarar yetkazdi. Bu futbolchilarning yoshi 20ga ham yetmagan edi.



Yashin urishi to'g'risidagi eng dahshatli voqea Gvatemalada sodir bo'lgan. Chikimulili futbol stadioniga tushgan yashin tufayli ikki nafar futbolchi halok bo'lgan va 10 nafari qattiq kuygan.

Amerikaning Greyplend shaharchasidagi (Xyuston okrugi) maktab futbol jamoasining yigirmadan ortiq o'yinchilari mashg'ulotlar chog'ida yashin zarbidan zarar ko'rdilar. 15 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan 24 nafar yosh futbolchilar va ularning ikki nafar murabbiylarini turli darajadagi jarohatlar bilan Texasdagi «Medikal Senter» kasalxonasiga olib kelishdi. Ularning shikoyatlariga qaraganda, ko'rish qobiliyatlari va sezgi organlari ishdan chiqqan edi.

ALINA KABAYEVA SPORTNI TARK ETMOQCCHI

Badiiy gimnastika bo'yicha Afina olimpiadasi o'yinlari chempioni Alina Kabayeva Tokioda bo'lib o'tgan Jahon chempionatida qo'lga kiritgan g'alabasidan so'ng, katta sportni tark etayotganligi haqida xabar qilib, shunday dedi: «Men sportda nimagaki erishish mumkin bo'lsa, hammasiga erishib bo'ldim».

Endi 21 yoshli rossiyalik gimnastikachi aktrisa sifatida o'zini sinab ko'rmoqchi va Gollivud kinolarida suratga tushmoqchi. Shuningdek, u badiiy gimnastika bo'yicha xalqaro maktab tashkil qilib, sayyoramizdagi barcha iqtidorli qizlarni shu maktabga to'plamoqchi. Alina Kabayeva bo'lajak to'yi haqidagi mish-mishlarning to'g'riligini ham tasdiqladi. Uning to'yi 2005 yilning yozida bo'lar emish.



Donesk viloyati, Komsomolsk shahrida istiqomat qiluvchi 25 yoshli polvon Dmitriy Xo'ja jimjilog'i bilan 150 kilogrammli ko'mir toshni ko'tardi. Ushbu ajoyib tomosha Kiyevning bosh maydoni - Mustaqillik maydonida o'n minglab tomoshabinlar ishtirokida bo'lib o'tdi. Ushbu jahon rekordi bilan Kiyev kunini nishonlash bayrami tantanalari nihoyasiga yetdi.

-Men o'z rekordimni poytaxtimizning 1522 yilligiga bag'ishladim,- dedi polvon.

Ushbu natija Ginnesning rekordlar kitobi vakili tomonidan qayd qilindi...



Shunga o'xshash voqea qadimgi yunon afsonalarida uchraydi. Unda yozilishicha, yunon polvoni miloddan avvalgi VI asrda bir qo'li bilan 143 kilogrammli toshni ko'targan ekan. Arxeologlar tomonidan topilgan, hozir Afina muzeylarida saqlanayotgan o'sha toshda quyidagicha yozuv bor: «U meni ko'tardi».



Dmitriyning millati ham grek. U polvonlik bobida VI asrda yashagan vatandoshidan ham «o'zib ketdi». Dmitriy juda og'ir vaznli toshni ketmaket sakkiz marta ko'tarishga muvaffaq bo'ldi.



Xitoylik akrobat Ginnesning rekordlar kitobiga tushish uchun 27 kunini baland dorda o'tkazdi.



Kiyev kuni nishonlangan oqshomda Rossiya va Ukrainaning boshqa

mintaqalaridan kelgan, nomlari Ginnesning rekordlar kitobidan joy olgan o'nlab laureatlar tomoshabinlarni hayratda qoldirishdi. Rekordlar kitobining 26 karra rekordchisi rossiyalik Bryus Xlebnikov 500 varaqli ma'lumotnomani bir necha soniya ichida xuddi oddiy qog'ozdek parchalab tashladi. Krivoy Roglilik 12 yoshli Varvara Akulova esa tennis koptogini o'ynatayotgan janglyorlar kabi ikkita ikki pudlik toshni bemalol osmonga irtib o'ynatdi.



Yangi-yangi ertaklar tinglash har bir bolakayning orzusi. Jahon estrada yulduzi Madonna betakror qo'shiqlarni kuylashdan va farzand tarbiyasidan ortilib, siz aziz bolajonlar uchun ajoyib ertak kitobini yozdi. Kitobini AQSHdagi eng yirik bog'chalarga tarqatib, jajji kichkintoylar bilan uchrashuvlar uyushtirdi.




Gollandiyaning Tuelo shahrida yashovchi Vilxelmina Yolink Paridan o'zining 17 yoshli nabirasidan har kuni parashyut sporti haqida turli hikoyalar eshitishga astoydil qiziqib qoldi. Uning nabirasi Morisa ham kitob o'qishni

kanda qilmasdi. Nihoyat, kitob sirli olam ekanligini tasdiqladi. Sportning bu turiga qiziqishi ortgan bobo orzusiga yetdi. U o'zining 80 yoshini 3000 metr balandlikdan sakrash bilan nishonladi.



Dunyo ajoyib va g'aroyib mo'jizalarga boy. Morisaning bobosi ko'rsatgan natijadan hayratlangan bo'lsangiz, mana bu yangilikni o'qib, hayratingizni ikki karra ortishi aniq: italiyalik 99 yoshli Barrodori keksaygan chog'ida vatandoshlarining faxriga, g'ururiga aylanib qoldi. Yuz yosh bilan yuzlashish arafasida turgan tinib - tinchimas bu qariya to'rt ming metr balandlikdan parashyutda sakradi va eson-omon yerga qo'ndi.





Orzu

Tengdoshingiz Hojiboy Qurbonovni ko'pchilik hali yaxshi tanimaydi. Ammo uning dadasi - «Handalak»chi Ortiq Sultonovni yurtimizda tanimagan, bilmagan odam topilmaydi.

«Handalak»chilar deyishimiz bilan yuzimizga iliq t a b a s s u m yuguradi.

Darvoqe, biz Hojiboy haqida gaplashayotgan edik-a? Mingta savoldan bitta javob yaxshi, deganlaridek, xuddi dadasi kabi so'zga chechan, hozirjavob, har gapiga bittadan maqol qo'shib gapiradigan Hojiboyning o'zi bilan bir suhbatlashib olaylik-chi:

-Hojiboy, tengdoshlaringizga o'zingiz haqingizda gapirib bering.

-Yoshim 11 da. Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi Qing'ir qishlog'ida tug'ilganman. Oilada uch o'g'ilmiz. Tasodifni qarangi, bugun mening tug'ilgan kunim. Suhbatimiz eng quvonchli kunimda o'tayotganidan juda mamnunman. Poytaxtimizdagi 302- maktabning 5-«A» sinfida o'qiyman. O'qishlarim yaxshi. Matematika, ona tili va adabiyot eng sevimli fanlarim.

-Sport olamiga ham juda erta kirib kelgan ekansiz-a?

-Sport mening jonu dilim. Uning o'ziga xos qiyinchiliklari ham yo'q emas, albatta. Sport zalida o'zim tengi bolalarning

terlab - pishib mashq qilayotganlarini ko'rib, rosa havas qilgandim. Oradan oylar o'tib men ham ular safiga

qo'shildim. 5 yoshimdan oq, Samarqanddagi «Kun-fu» sport klubiga qatnaganman. Birinchi murabbiyim Abdumalik aka Vahobovning saboqlariga, pandu nasihatlariga amal qilib, 6 yoshimda sariq belbog', 7 yoshimda ko'k belbog' sohibiga aylandim.

-Bu sport turini o'zingiz qanday tushunasiz?

-Taekvondo - asosan o'g'il bolalar shug'ullanadigan sport turlaridan biri. Unda kikkoksing, qo'l jangi, boks, taekvondo, karate kabi sport turlari uyg'unlashib ketgan. Biz mashg'ulotlarimizda asosan qo'l va oyoqlar harakatiga jiddiy e'tibor beramiz. Tinimsiz mashqlarim o'z samarasini berdi. 8 yoshimdayoq qizil belbog'li bo'ldim.

-Murabbiyngiz o'tadigan qaysi mashg'ulotlar sizga ko'proq yoqadi?

-Biz har bir mashg'ulotdan avval chiniqish mashqlarini bajaramiz. Menga murabbiyimizning zal bo'ylab yugurtirishlari ko'proq yoqadi. Shunda kuchimga kuch qo'shilgandek bo'ladi.

-Musobaqalar chog'ida bo'lib o'tgan

qiziqarli, esda qolarli biron voqeani do'stlaringizga aytib bering.

-Birinchi sinfda o'qirdim. Klubimiz

raqibimni qitiqlab ko'rdim. U esa baralla kulib yubordi. O'shanda men mutloq g'olib bo'lgandim.

-Bugungi kunda nima uchundir mashg'ulotlarga qatnamay qo'yibsiz? Sababi sir emasmi?

-Albatta sir emas. Har gal murabbiyim bilan musobaqalarga katta tayyorgarlik ko'ramiz. Ammo aynan musobaqa vaqtiga kelib, mening qulog'im og'rib qoladi. Musobaqalarga qatnashib, natijalarga erishmagandan keyin sportdan ham biroz soviy boshladim.

-Hozirda nimalar bilan mashg'ulsiz?

-Ikki oycha uyda kompyuter o'rgandim. Kompyuter shunday narsa ekanki, o'z olamiga tobora ko'proq tortaverarkan. Aqlni ham peshlar ekan. Bir kuni oyim, qayerdandir gap topib keldilar: nima emish, bir dugonalarini o'g'lining ko'zi kompyuterdan nurlanib qolganmish. Endi oyijonim kompyuterdan ko'ra, sport mashg'ulotlaringa qatnaysan, deb qattiq turibdilar. O'g'il bola o'g'lon bo'lib o'sishi lozim, deyдилar ular doim. Ko'p kitob o'qiymiz. Uy ishlariga yordamlashamiz. Yaqinda dadam ajoyib sport kiyimi olib berdilar. Endi yana sportga qaytaman. Oyijonim orzulagandek, haqiqiy o'g'lon bo'laman. Chempion bo'lolmasam ham, eng yaxshi inson bo'laman.

Ma'mura YIGITALI qizi suhbatlashdi.



bo'lib qolgandi. Hali qo'lga kiritmagan g'alabamdan ruhlanib ketibmi, raqibimni qattiqroq urgan edim, u yiqilib tushdi. O'zini hushsizlikka soldi. Shunda uning aldayotganligini sezib qolib, hakamlarga qarata: «hushidan ketgani yo'q», dedim. Qayerdan bilding, deya hayron bo'lishdi ular. Hozir isbotlayman, dedim-da,

YAPONIYA-KARATENING VATANI

Serquyosh O'zbekiston ko'pgina sohalar singari sportda ham juda ko'plab mamlakatlar bilan mustahkam aloqa o'rnatgan. Kunchiqar mamlakat Yaponiya ham ana shunday davlatlardan biridir. Yurtimiz futbolini rivojlantiruvchi va musobaqalarni o'tkazuvchi tashkilot -O'zbekiston futbol federatsiyasi rahbariyati istiqolning ilk yillaridanoq yaponiyalik hamkasblari bilan hamkorlik shartnomasini imzolaganlar. Bugungi kunda santarali ish olib borayotgan futbol federatsiyamiz faoliyatini yo'lga qo'yish va uning moddiy texnika bazasini barpo etishda bu hamkorlikning ijodiy ta'sirini sezish mumkin.

Yaponiya sport olamida o'z o'rni, tarixi va an'alariga ega mamlakat. Bu diyar sharq yakkakurashlarining eng ommalashgan turi bo'lmish- karatening vatani hisoblanadi. Karate bilan mamlakatimizning o'zida 60 mingdan ziyod yoshlar shug'ullanayotgani ham bu sport turining nufuzini belgilab beradi. Karatechilarimizning xalqaro maydonlarda zafar quchib, yurtimiz bayrog'ini sarbaland etayotgani esa barchamizni quvontiradi. Darvoqe Yaponiya faqat karatени emas, balki dzyu-doning ham vatani. Bu davlatning milliy sport turlari shular bilan chegaralanib qolmaydi. Har biri o'z uslubiga, qadriyatlariga ega bo'lgan sport turlari ham borki, ular haqida keyinroq suhbatlashamiz.

Orollardan tashkil topgan Yaponiya, har yili turli yirik xalqaro musobaqalarga ham mezbonlik qiladi. Ajoyib stadion va sport koshonalari bilan jahon ahlining mudom e'tiborida turadigan bu yurtga har qancha havas qilsa arziydi. Ajab emas, orangizdan O'zbekiston kurashi - dzyu-dosini namoyish qilish uchun Yaponiyaga tashrif buyuradiganlar chiqib qolsa. Buning uchun hozirdan sizning yaponcha tirishqoqlingiz va uddaburonligingiz talab qilinadi.

Xalqimizning o'lmas qadriyatlarini, umrboqiy udum va an'analari borki, ular asrdan-asrga, avloddan-avlodlarga meros bo'lib

bilishadi. O'z davrining tanti bahodiri bo'lgan polvon bobomiz ayni chog'da ham kurashchilarga xos g'ayrat bilan mehnat qilib tolmayaptilar.

o'rgatsam, degan orzuim ro'yobga chiqdi. Endi yosh shogirdlarimdan jahon chempionlari chiqsa, armonim qolmasdi...

SPORTSEVAR YOSHLARGA MAXSUS STIPENDIYA

kelmoqda. Bugungi kunda ularning shunchaki osori atiqqa emas, balki millatimiz purviqorligi, yoshlarimiz sihat-salomatligining muhim omili ekanligini yanada chuqurroq his qilyapmiz. Bunday rishtalarni asrab - avaylab, avlodlarga busbutun yetkazishda ko'plab fidoiy insonlarning mehnatlari yotibdi.

Chiroqchilik polvon bobo Abdurashid Mirzayev tabiatan tinib-tinchimas, mehnatsevar kishi. Shu bois, u kishini nafaqat Qashqadaryoda, balki yurtimizda ham yaxshi

Tumandagi eng a'lochi, sportsevar o'quvchilar uchun «Abdurashid polvon bobo» stipendiyasini joriy etganligi, o'z sa'y - harakati bilan maxsus kurash maktabini ochib, 200 nafarga yaqin o'g'il - qizlarga kurash sirlarini o'rgatib kelayotganligi fikrimizning dalilidir.

Mustaqillik sharofati bilan milliy kurashimiz uchun jahon sahnasi sari yanada kengroq yo'l ochildi. Bu dorilomon kunlardan shodlanib, bobo samimiyat bilan so'zlaydi:

-Shukrki, hozir kuch-quvvatim bor. Qaniydi, bir kurash maktabini ochsam-u, bilganlarimni yosh avlodga

Kelajakka katta ishonch bilan boqayotgan Abdurashid bobo polvonlikning mas'uliyati, zalvori haqida o'z umr yo'llari misolida «Kurashning qayta tug'ilishi», «Nortoji polvon» kabi kitoblarini chop etdi...

G'ayrati yoshlarnikidan kam bo'lmagan polvon bobo bilan yaqinroq tanishib, dildan suhbat qurib, maqola yozishni va uni gazetamizning navbatdagi sonlaridan birida e'tiboringizga havola etishni niyat qildik.

Akmal ABDIYEV, Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani.

QANI, SAHNAGA MARHAMAT!

Maktab sahnasidagi she'r yodlashlarim, san'atkorlarga taqlid qilib, raqsga tushishlarim - hamma-hammasini qadrdon maktabimga borgan kun yana bir-bir yodga oldim. O'ylab qarasam, oliygohga oson kirib ketishimga ham shu maktab sahnasi sabab bo'lgan ekan. Chunki turli fan bellashuvlari, ayniqsa, adabiyot olamidagi yangiliklar tezda sahnemiz yuzini ko'rardi-da. Maktabimizda bu qiz bola, bu o'g'il bola ishi, degan gap bo'lmasdi. Shuning uchunmi, oltinchi sinfda ustozimiz Sobit aka Mirolimov sabab temir-tersakka oshno bo'lganmiz, va... qiz bola bo'lsam-da men yasagan xokandozu bolg'alar tengdoshlarimnikidan yaxshiroq va chiroyliroq chiqqan. Keyingi chorakda esa duradgorchilikdan saboq olganmiz. O'shanda men-murg'akkina qiz bola yasagan jo'va va tesha soplari maktabimiz ko'rgazmasida uzoq vaqtgacha saqlanib turgan... Ha, men o'qigan maktabda bilimdon murabbiylar, har kuni darsga chorlab turuvchi qiziqarli dars soatlari bisyor edi. Shuning uchunmi, chevarlikni ham, pazandalikni ham shu - maktabda o'rganganman. Oliyogohga kirishimga ham... Keling, boshidan aytib bera qolay: Men maktabni oltin medal bilan bitirganim uchun faqat bitta fandan imtihon topshirishim kerak edi. U vaqtlarda test bilan bilimlarni sinash bo'lmagan. Balki, ustoz bilan yuzma-yuz o'tirib savol-javob qilinardi. Xullas, imtihon varaqasini oldim va savolni ko'rib, ko'zlarim charaqlab ketdi.

Bobur lirikasi!

Imtihon oluvchi o'tirmay javob beradiganlarga bir ball qo'shib beramiz, deb qoldi. Men hech hayiqmay, javob berishga otlandim.

*-Kim yor anga, ilm tolibi, ilm kerak,
O'rgangali ilm tolibi ilm kerak.*

Men tolibi ilmu tolibi ilmi yo'q,

Men bormen, ilm tolibi, ilm kerak...

Men ham ilm istab bu dargohga keldim. Mirzo Bobur ilm olish haqida qanday chiroyli gapirib qo'ygan-a...

So'zlarimni kulinsirab tinglayotgan domla davom etayering, deb qarab turardi. Men Bobur g'azallaridan qatorlashtirib o'qib tashladim. Chunki yaqinida shu qadrdon maktab sahnasida Bobur lirikasiga bag'ishlab adabiy kecha o'tkazgan edik-da. Mening hech hayajonlanmay, sof o'zbek tilida o'z fikrimni bayon qila olishimga ham shu sahna sababchi edi-da. Ustoz shu kuni menga besh qo'ydi va men talaba bo'ldim!

Endilikda yurtimiz faxriga aylangan qahramon o'qituvchi, mening aziz ustozim Mavluda opa Sobirova rahbarlik qilayotgan qadrdon maktabimda bolajonlarning sahnadagi go'zal chiqishlarini ko'rib,

bolalik kunlarimga oson chekindim. Va bir haqiqatni tuydim: *Maqsadga yetmoq uchun eng avvalo chiroyli so'zlash kerak!*

Maktab zali tilga oid shiorlar, devoriy gazetalar, gullar bilan didli bezatilishida ham Mavluda opamizning qo'li borligini yaqqol anglab turibman. O'quvchilar tomonidan yozilgan referatlar, insholar, bukletlar alohida stol ustiga qo'yilgan. Musiqa yangrab turibdi. Tadbirni Yunusobod TXTB ona tili va adabiyot uslubiyati rahbari Mahmuda USMONOVA boshlab berdi:

*Aziz o'quvchilar, kechagina
Siz kabi bola edim. Orzulari
g'unchalayotgan gul-lola edim.
Ona maktabim bag'rida shodlangan
ham, ezgu orzular qanotida
kelajakka otlangan ham...*

-Assalому alaykum bugungi bayram kechamizga tashrif buyurgan mehmonlar. Aziz ustozlar va qadrlil o'quvchilar! Sizlarni bugungi bayram bilan chin yurakdan qutlaymiz. Va o'zbek tiliga Davlat maqomi berilganligiga 15 yil to'lishi munosabati bilan o'tkazilayotgan bayram kechasiga «Xush kelibsiz» deymiz.

(Madhiya yangraydi).

1-boshlovchi:

*-Qoshg'ariymi tinglab she'rin durlarin sochgan,
Navoiyga mehrin ko'ksini ochgan.*

*Ona tilim, jonu dilim, quyoshim mening,
Qora tunni ko'k yorolgan ko'z yoshim mening.*

2-boshlovchi:

*-Bobur Mirzo o'zga yurtida tilim deb yondi,
Furqat yonib ikki o'tda elim deb yondi.*

*Necha yillar ko'zin yoshlab kezib dardadar,
Felim deya yondi Furqat, bo'lib qalandar.*

1-boshlovchi: - Assalому

alaykum hurmatli mehmonlar.

Aziz yurtimiz, davlatimiz o'tmishi bu qo'hna dunyo tarixiga hamohang. Bu kun biz ulug'vor voqealarning shohidimiz. Yaqinda ulug' vatanimiz istiqlolining 13 yilligini nishonlagan bo'lsak, shu kunlarda tilimizga Davlat maqomi berilganligining 15 yilligini nishonlamoqdamiz. Bu yillarda zaminimizda ulug' ajdodlar ruhi kezib yuribdi, o'z tilini sevgan xalq esa buyuk o'zgarishlar qilmoqda.

1-boshlovchi: - Tilimiz taraqqiyotiga Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'ati turk», Ahmad Yugnakiyning «Xibbat ul-haqoyiq» dostonlari katta hissa bo'lib qo'shilgan. Ma'naviyat gultojlari bo'lmish Alisher Navoiy, Sakkokiy, Bobur, Nodira, Uvaysiy, Anbar otinlar she'riyat rivoji uchun ulkan hissa qo'shgan benazir qalam sohibidurlar.

(Davraga o'quvchilar chiqib, «Ona tilim o'lmaydi» she'rini o'qiydilar, «Dilxiroj» raqsini ijro etadilar. Avaz O'tarning «Til» g'azalini o'qiydilar):

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,

Til vositayi robitayi olamiyondur.

G'ayri tilni bilgali sa'y aylangiz, yoshlar,

Kim ilmu hunarlar kaliti andin aygondur.

Lozim sizga har tilni biluv ona tilidek,

Bilmakka oni g'ayrat eting, foydagi kondur.

Ilmu fan uyiga yuboringlar bolangizni,

Onda o'qug'onlar bari yaktayi zamondur.

Zo'r o'lmasun onlar dag'i til bilmay Avazdek,

Til bilmaganidin aning bag'ri to'la qondur.

1-boshlovchi: O'zbek tili... U buyuk til, negaki, u insoniyatga ulug' siymolarni berdi, uning xalqi ham buyuk, chunki shu tilda kuylab, jahon sahniga chiqdi.

2-boshlovchi: - O'z zamonasining buyuk davlati Turk xoqonligi shu tilda so'zlandi. Keyin... arab lisoni-yu, eron zabonining zug'umlaridan biroz toliqdi, lekin tek turmadi.

1-boshlovchi: - Go'dakligidan tillarini biyron qilib o'stirgan o'z farzandlarining arabu fors tillarida dunyoni lol qoldirishlariga jimgina zamin hozirladi. O'zi esa asta-sekin qaddini tiklashga intilaverdi.

2-boshlovchi: -Nihoyat, Sharqda buyuk bir sher na'ra tordii.

1-boshlovchi: - Navoiy... U Husayn Boyqaroning qo'llab-quvvatlashi va bevosita yordami bilan turkiy tilni forsiy til darajasiga



ko'tarishdek mushkul ishning uddasidan chiqq oldi. Va uning zamonida o'zbek tili davlat ahamiyatiga molik bo'ldi. («Navoiy va Lutfiy» asaridan sahna ko'rinishi ijro etiladi.)

1-boshlovchi: - 1989 yil, 21- oktabr. Xalqimizning azaliy orzulari ro'yobga chiqdi.



2-boshlovchi: -

*Siz tilni asrangiz, har nedan ortiq,
Xagona zaminni asragansimon.*

*Bobolardan qolgan noyob bu tortiq,
Foki avlodlarga yetolsin omon.*

(«Men nechun sevaman O'zbekistonni» she'ri yangraydi).

1-boshlovchi: - Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbek tilini Davlat tili deb e'lon qilgan ekanlar, shunday deb ta'kidladilar.

2-boshlovchi: -Ona tilimning buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin jiplashtiradi.

1-boshlovchi:

*-So'zdu'ki, nishon berur o'tikka jondin,
So'zdu'rtki, xabar berur jong'a jonondin.*

*Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.*

(Sahnaga hamma o'quvchilar chiqadilar va birgalikda shunday deydi):

-Biz mustaqil O'zbekiston yoshlari ona tilimiz qadrini doimo yuksak tutishga, uning softligini saqlashga, taraqqiyotiga hissa qo'shishga mas'ulmiz.

Men o'quvchilarning sahnada gulgul yonib turishlarini o'zbekona kiyinishlaridan deb bildim dastlab. Keyinroq esa o'zbek tilida emin-erkin so'zlashlaridan deb bildim. Yana keyinroq esa, bu g'ururni, e'tiqodu o'ziga ishonuvchanlikni qalbimizga jo qilgan - ISTIQLOLdan deb bildim. Ha, istiqlool sabab, siz aziz bolajonlar o'z tilingizda oson so'zlab, o'z yurtiingizda erkin yashaysiz. Bilimingiz oshib, fikrlaringiz charxlanib borishida esa ma'lum ma'noda maktab sahnasining ham hissasi bor. Quvonch va hayajonlaringiz, orzu va armonlaringizni bayon qilish uchun, qani, sahnaga marhamat!

Umida ABDUAZIMOVA
Yunusobod tumanidagi
273 - maktab.

«CUNCHA»NING CUNCHALARI

Nima bo'ldi-yu, Shahnozaning tomog'i og'rib qoldi. Onasi bo'ldi: «Harorati Noila opa uni bog'chaga yuboray desa, biroz tobi qochib turibdi.

Bog'cham - ovunar joyim

Uyda olib qolay desa, ishxonasida bugun hal qilinishi zarur bo'lgan ishlari qalashib yotibdi. Biroz o'ylanib turgach, qizini bog'chaga olib borib, hamshira opasi bilan maslahatlashishga qaror qildi. Bog'cha hamshirasi M. Gulomova Shahnoza va uning onasini iliq qarshi oldi. Gap nimada ekanligini bilgach, qizchani diqqat bilan ko'zdan kechirdi.

-Sovuqroq suv ichib qo'rganmi deyman, biroz tomog'i qizaribdi,-dedi uning onasiga yuzlanib.-Siz bemalol ishingizga ketavering, Shahnozaga o'zim qarab turaman...

Noila opa ishga borishga bordi-yu, ikki xayoli qizchasida

bo'lsa-ya...» Yugurib borib, bog'chaga telefon qildi.



Qizchangizning tomog'ini artib, dori ichirib qo'ydim. Hozir o'rtoqlari bilan chopqillab o'ynab yuribdi,-tinchlantirdi uni hamshira.

Shundan keyingina Noila opaning ko'ngli taskin topib, qo'li ishga bordi. Chunki qizchasi ishonchli qo'llarda edi-da...

Darhaqiqat, Zangiota tumanidagi 25-sonli «Cuncha»

bolalar bog'chasida o'z kasbining fidoiylari bo'lmish tarbiyachi va enagalar mehnat qilishadi. Ular bog'cha mudirasi Irodaxon Rahimova boshchiligida «3 - ming yillik tayanch dasturi» asosida ish olib boryaptilar. Bolajonlar ingliz va rus tilini o'rgatadigan to'garaklarda chet tillarini o'rganishsa, sport to'garaklarida salomatliklarini mustahkamlayaptilar.

«Sog'lomjon - polvonjon» sport musobaqalarida faol ishtirok etgan bog'cha kichkintoylari lo'rinni egallab, viloyat bosqichida ham ishtirok etishdi. R.Ziyayeva, G.Karimova, Z. Xolxo'jaeva kabi fidoiy tarbiyachilardan ta'lim-tarbiya olayotgan bolajonlarning kelgusida kim bo'lishlaridan qat'iy nazar, komil insonlar bo'lib ulg'ayishlariga ishonamiz.

Nargiza AKBAR qizi.

Suratlarda: Bog'cha hayotidan lavhalar.

Xolmurod TOSHMUHAMMEDOV olgan suratlari.

KARFOSHKA

Goh uxlayman to'rvada,
Goh pishaman sho'rvada.
Goh qozonda qaymayman,
Mastlavada yayrayman.
Lag'monda ham men borman,
Hamma joyda tayyorman.
Fa'm beraman ovqatga,
Arziyman-da rahmatga.

SABZI

Yupqagina fo'slim bor,
Datada ko'p do'slim bor.
Maqolda ham yoziqman,
O'sha olin qoziqman.
Yolsam yerga qapishib,
Dumginamdan tortishib.
Tashlashadi o'raga,
So'ngra palov to'raga.

PISPA

Xandon pisa ismim bor,
Ismimga mos jismim bor.
Doim kulib yuraman,
Xizmalga shay turaman.
Dasturxonaga ko'rk berib,
Turaman ko'krak kerib.
Kulguning ustlasiman,
Boylarning hislasiman.

Dilrabo DO'STQOBILOVA,
Toshkentdagi 118 - maktabning
6 - «A» sinf o'quvchisi.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Abdusaid KO'IMOV,
O'ktam OXUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
N: 022 raqam bilan
2003 yil 11 dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 11612
Buyurtma N: J659

Dizayn va sahifalovchi:
Otabek ESHCHANOV.

Navbatchi:
O. TURSUNBOYEVA.


Rassom:
Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,30-uy.
Obuna indeksi: 198
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38
144-38-10
144-21-75

Tel./ faks:
(99871) 144-24-45

TOPISHMOQLAR



Fermada yozrab qolib,
Saharda oxoz solib.
U ko'rmaydi tarog'in,
Olmaydi o'rog'in.

Yalovlar o'zi,
Olovli ko'zi.
Yonib nur sochur,
Bahringni ochur.



O'rkachli bo'lib turar,
Ko'klarda chodir qurar.
Shamoldan o'zi qochur,
Yoshini yerga sochur.

Oq uycham past, ichi tor,
Ichida ikki do'st bor.
Oq va sariq o'zlari
Eshitilmas so'zlari.



Uch ko'zli o'zi,
Buyurar ko'zi.
Bir joydan filmas,
Charchashni bilmas.

Olti gramm hosil,
Boyliging asl.
Fusi oq porlar,
Bag'riga chorlar.

Bobomurod CHORI o'g'li,
Surxondaryo viloyati,
Angor tumani,
Mustaqillik shirkat xo'jaligi.

DUNYO

(Qatra)

U go'yoki tubsiz ummon, cheksiz osmon kabidir.
Ba'zan torgina yo'lak ba'zan keng yaylovga o'xshaydi. Unga bevafo va birkam deya ta'rif berishadi. Uning betakror go'zalliklari-yu, mo'jizalari, sir-sinoatlari xuddi cheki yo'q sahroda unib chiqqan maysa kabi-ajablanarlidir.

Dunyo hamisha ikkiga: oq va qoraga, yaxshi va yomonga bo'linadi.

Dunyo... Naqadar go'zal bog' va razolat, adovat botqog'idir. Gulzorning go'zalligi gullar bilan bo'lgani kabi, dunyoning ko'rki jamiyatda yashovchi insonlarda. Uning adovatli ekanligini esa meva berib turgan daraxtga bolta urgani kabi insonlarning bir-biriga hasadlari-yu, g'arazliklarida ko'raman.


Dunyo... U ba'zan mehru muhabbatga boy. Lek ba'zi insonlar suvga tashna sahro kabi mehrga zorlar. Nega? Bu dunyoni biri kam deyдилar. Agar u to'lato'kis bo'lganda, unda yashashning, hayot uchun kurashishning qizig'i qolmas?..

Aziza BERDIBOYEVA,

A. Navoiy nomidagi Respublika nafis san'at litseyi o'quvchisi.

1. Topilmas boylik.
2. Inson ko'rki.
3. Insonning xislati.
4. O'zbek musiqasi.
5. Quyosh.
6. Qalb orqali beriladigan in'om.

«YAPROQ» BOSHQOTIRMASI



Tuzuvchi: R.A.YUNUSOVA,
Toshkent shahar, Hamza tumani,
O'rta masjid mahallasi pedagog - tarbiyachisi.

1. Kuch doim undadir.
2. Sevishganlar orzusi.
3. Rang (Qizil).
4. Qo'shiqda erkanadigan hayvon.
5. Suvosti boyligi.